

XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING INSON SHAXSIY VA IJTIMOY KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI

D. Baxronova¹, I. Turamuratova²

Annotatsiya:

Hozirgi zamon olimlari jamiyat taraqqiyotining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Insoniyat madaniyatining shakllanishida ta'lim ulkan ahamiyatga ega va bugungi kunda har qanday jamiyat a'zosida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Ijtimoiy mas'uliyat – bu shaxsning ijtimoiy normalar, jamiyatning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini bilish asosida o'z xatti-harakatlarini aniqlash qobiliyati hisoblanadi. Bu sifat kelajakdagi mutaxassisning muhim xususiyatlaridan biridir. Ushbu sifatni takomillashtirishda shaxsiy kamolot bevosita katta rol o'ynaydi. Umuman olganda insonning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bo'g'liq rivojlanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni ham beqiyos, ayniqsa, chet tilini bilish o'z qobig'idan chiqib boshqa bilimlarni ham egallashga keng yo'l ochadi. Bu maqolada xorijiy tillarni inson shaxsiy va ijtimoiy kamolotidagi ahamiyati hamda o'qitishda maksimal samaradorlikka erishishga imkon beradigan usullar ko'rib chiqildi, tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: pedagogik kompetensiya, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish, xorijiy til, ma'naviy-axloqiy tarbiya, madaniyat, usullar.

doi: <https://doi.org/10.2024/do3egn60>

Tarixiy-ilmiy asarlar hamda jamiyatda mavjud ijtimoiy-pedagogik qarashlar barcha zamonlarda xorijiy tillarni biluvchilarga talab katta bo'lganligi va ular qadrlanganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish oliy ta'lim tizimining barcha jabhalari – bog'cha, maktab va oliy ta'lim muassasalarini qamrab olgan. Nomutaxassis oliy va oliy-harbiy ta'lim dargohlarida ham xorijiy tillar o'quv rejasidan mustaham o'rin olgan va ularni o'qitishga jiddiy yondashiladi. Chet tillarini o'qitishni takomillashtirish va bu soha o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini shakllantirish, oshirib borishda mamlakatimizda qator Farmon va qarorlar imzolangan. Ta'lim istiqbollari belgilab berilgan, mamlakat iqtisodiy rivojining yuqori bosqichlarga chiqishi bevosita sifatli ta'limga bog'liqligi ta'kidlangan qonun hujjatlarida xorijiy tillarni bilishning ahamiyatiga ham katta e'tibor berilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 2 million nafar fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish; maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta'minlash haqidagi bandlar kiritilgan, yoki 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston

¹ *Dilrabo Baxronova, O'zDJTU professori, fil.f.d (DSc), ispan tili amaliy fanlar kafedrasini mudiri*

² *Iroda Turamuratova, O'zDJTU dotsenti, fil.f.d (PhD), ispan tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri*

Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida qator masalalar belgilab qo'yilganligini¹ misol keltirish mumkin. Shu qatorda, yuqoridagi PQ-5117-sonli qarorga ko'ra C1 sertifikatiga ega xorijiy til o'qituvchilari uchun oylik maoshiga nisbatan 50 % ustamaning qo'shib berilishi yanada chet tillarini chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirmoqda.

Bugungi kun zamonaviy o'qituvchi oldiga o'zidagi bor bilimni juda tez fursatda o'quvchi-talabalarga sifatli singdirish talabini qo'ymoqda, o'rganuvchilar barcha kerakli bo'lgan bilimlarni aniq-tiniq bilib olishi zarurat hisoblanmoqda. Shuningdek, ta'lim berish jarayonida talabalarni abstrakt narsalarga o'rgatish emas, aynan hayotiy muammolarni hal qilishda kerak bo'ladigan bilim bilan ta'minlashga erishish, jamiyatga integrasiyalahsuvini osonlashtirish va oliy ta'limni tamomlagach, mutaxassis sifatida kelajakka maqsadli-manzilli yo'naltirish kabi talablar qo'yilmoqda. Bu borada professional muvaffaqiyatga erishishda bo'lajak chet tili o'qituvchisi pedagogik kompetensiyasining muhim shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

Shaxsiy qat'iyat: bo'lajak o'qituvchi mas'uliyat va munosabatda qat'iylik asosida qaror qabul qiladi.

O'ziga ishonch: bu bo'lajak o'qituvchining o'qituvchilik kasbiga ishonchi, kasbiy o'zligini anglashidir, kasbga ishtiyoqi va ishlashga bo'lgan muhabbatini oshiradi.

Ijtimoiylashuv: o'qituvchi o'z harakatlari va so'zlarida auditoriya oldida ruhiy xotirjamlik va hissiyot barqarorligiga erishishi bilan xarakterlanadi.

Shaxsiy samaradorlik: ijodkorlik va ta'lim jarayonining boshqa elementlarini o'zida mujassam qilish qobiliyati orqali yutuqlarga erishish.

Kursni o'zlashtirish: o'quv materiali va nazariy mashg'ulotlarni yaxshi egallash darslarni yuqori darajada o'tish imkonini beradi.

Emotsional muvozanat: o'qituvchi ijtimoiy xulq-atvori turli xil bo'lgan o'z talabalari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatadi.

Ob'ektivlik va kamtarlik: talabalar bilan muomalada kamsitish va murosasizlikka yo'l qo'ymaslik, shuningdek, darslarni xolislik va o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan holda o'tish va hk.

O'qituvchi ta'lim jarayonining yuragi, yo'l-yo'riqchisi va ijrochisi bo'lib, uning muvaffaqiyati jamiyatning muvaffaqiyatidir. U madaniyatli, sohaga oid manbalar bilan yaxshi tanishib borishi va zamonaviy pedagogikaning so'nggi yutuqlari bilan hamohang qadam tashlashi, o'z fanini sevishi va faxrlanishi, mashg'ulotni aniq yetkazib berish metodlarini bilishi, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish olishi va ijodkor shaxs bo'lishi kerak. Dars davomida quyidagi usullardan foydalanish xorijiy tillarni o'qitishda maksimal samaradorlikka erishishni ta'minlaydi:

1) Grammatika va tarjima. Bu usul xorijiy tillarni o'rganishdagi eng dastlabki usullardan bo'lgani sabab birinchi o'rinni zabt etsa-da, u xorijiy tillarni o'rganishning eng tezkor usuli deb hisoblanmaydi. Unda grammatik qoidalarni yodlash, so'ngra matn bilan ishlash, ya'ni grammatik qoidalardan foydalanib matnni tahlil qilish kiradi. Keyingi qadam – o'rganilayotgan chet tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan xorijiy tillarga jummalarni yozma tarjima qilish. Bu usulning asosiy kamchiligi, talabalarda nutqni mashq qilish imkoniyati

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5426736>

juda kam bo'ldi. U deyarli butun 20-asrda chet tillarini o'qitishning birdan-bir samarali usuli bo'lib kelgan va hozirgacha qo'llanilmoqda.

2) Tabiiy taqlid. Tabiiy taqlid usuli aslida grammatika va tarjima usuliga teskari bo'lib, takrorlash va tuzatish orqali o'qib-o'rganishdir. Bu xuddi tili chiqqan bolaning grammatik qoidalarsiz ham tabiiy ravishda ona tilni o'zlashtirib olishga o'xshaydi, ya'ni taqlid orqali til o'rganiladi. Dars davomida o'quvchilarning ona tilidan umuman foydalanilmaydi. Bu yerda til interferensiyasini yengib o'tishga e'tibor qaratiladi. Darsda talaba tilni kichkina bola kabi o'rganishi kerak, avval eshitib, keyin takrorlaydi. Aytib o'tilganidek, bu usulda tan olingan grammatik qoidalar muhim emas va o'rgatilmaydi. Buning o'rniga, talabalar o'rganilayotgan til matnini kontekstdan o'zlari tushunishlari kerak. Asosiy e'tibor o'zaro suhbatga qaratiladi. Agar tinglovchilar to'g'ri gapirsa, ularni maqtab motivatsiya beriladi, natijada tilni yaxshi o'rganishga bo'lgan jozibadorlikka erishiladi. Jarayonda talabalar xatoga yo'l qo'yishsa, o'qituvchi ularni yumshoq qilib tuzatadi. Amaliyotda, dars davomida o'qituvchi o'quvchilar javob bera oladigan savollarni beradi yoki matnni ovoz chiqarib o'qiydi va talabalar ham xuddi shunday qaytarib talaffuz qilishadi. Bu usulning kamchiligi, asosan gapirishga qaratiladi va yozish kompetensiyasi u qadar rivojlanmaydi.

3) Kallan usuli. 1960-yillarda Robin Kallan tomonidan yaratilgan bu usul dunyo bo'ylab tarqaldi. Bu usul nimadan iborat?! Tilni o'rganish asosan suhbatga asoslanadi. Talabalarga tasodifiy tarzda savol beriladi va ularning vazifasi o'ylamasdan, o'zlashtirgan leksikasini qo'llab imkon qadar tezroq javob berishdir. Ular uzoq o'ylab, grammatik qoida asosida jumla tuzishga vaqt yo'qotmasliklari, balki o'rganganlarini mashq qilish va ishlatish orqali faol ishtirok etishlari kerak. Darslar faqat xorijiy tilida olib boriladi. Bir material ko'p marta takrorlanadi va xatolar o'qituvchi tomonidan sinxron tarzda tezda tuzatib boriladi. Talabalar saboq olish davomida hech qanday eslatmani qayd qilmaydilar. Kamchiligi, bu usulda ham asosan, og'zaki nutq rivojlanadi.

4) Lisoniy immersiya. Lisoniy immersiya, bu til va uning madaniyatiga to'liq sho'ng'ish demakdir. Ona tilida olib borilayotgan til o'rganish kurslarida bunga to'liq erishish qiyin. To'g'rirog'i, u tili o'rganilayotgan mamlakatda (masalan, Ispaniyadagi ipsis tili kurslari) yoki til egasidan saboq olganda o'sha til olamiga sayohat qilinadi va bu usul juda samarali bo'ldi.

5) Kommunikativ. Kommunikativ yondashuv yuqorida qo'llanilgan barcha usullarning tabiiy natijasi bo'lib, hozirgi vaqtda til maktablarida eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Turli kontekst va muzokaralar olib borish, aytib berish, taqqoslash, tasvirlash, biror narsa so'rash va hk vaziyatlarda muloqot qila olish qobiliyatiga urg'u beriladi. Bu usulda gapirish kompetensiyasi juda muhim va intensiv mashq qilinadi, ammo grammatika va yozish ham e'tibordan chetda qolmaydi. Grammatikani o'rganish alohida emas, balki kontekstda sodir bo'ldi. Bunda turli mashq va topshiriqlar talabalarning erkin muloqot qilishiga erishishga qaratiladi.

Til o'rgatishda yuqorida keltirilgan yoki boshqa usullardan foydalanish, yoki ularni aralashtirib qo'llash mumkin, asosiy natijadorlik, ya'ni muvaffaqiyatga erishish, kuchli raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib chiqarish hisoblanadi.

Yana bir asosiy jihat shundan iboratki, til o'rganuvchida xohish bo'lsa, natija yanada samarali bo'ldi. Bolani til o'rganishga majburlash, qiziqmagan sohasiga yo'naltirish kutilgan natijani bermaydi. Shug'ullanmoqchi bo'lgan sohaning barcha ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqish, ehtiyoj va imkoniyatlarini tahlil qilish, qanday va nimani o'qishni istashni o'ylab ko'rib amaliyotga joriy qilinsagina ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatli kechadi.

Turli darajada egallangan xorijiy tilni o'qitishda quyidagi tartibni ham qo'llash mumkin: a) xorijiy tilidan foydalanish maqomini ko'tarish. Bunda yaratilgan darsning har bir epizodi davomida o'rganilayotgan tilda o'quvchilarni yozish, o'qish, tinglash, tarjima qilish va gapirishga undash orqali amalda qo'llash; b) keyingi bosqich o'quv jarayonida muloqotga e'tibor berish. Til o'rganishdan maqsad muloqot qilish, fikr bildirish va uni mukammal o'zlashtirishdan iborat bo'lgani uchun o'quvchilarga so'zlashuvda chet tilida kundalik hayot bilan bog'liq vaziyatlar yoki real muloqotni yaratishlarini so'rash kerak bo'ladi, bu hol yangi leksikani xotirada mustahkam o'rnashishiga yordam beradi; c) o'quv rejadagi fanlar va ularning mavzularini jamiyatda dolzarb sohalar va talaba ehtiyojidan kelib chiqib tuzishning maqsadga muvofiqligi. Masalan, xorijiy tillar o'qitiladigan OTMLlarda "turizm va gid hamrohlik" fanini kiritish hozirgi kunda butun dunyoda iqtisodning asosiy ko'rsatkichi hisoblangan va O'zbekistonda ham jadal rivojlanayotgan gid-hamrohlik va turizmga oid boshqa kasblarga ehtiyojning ortayotganligidan kelib chiqmoqda; d) muloqot samaradorligini oshirish uchun ta'lim va tarbiyani muvofiqlashtirish. Masalan, ommaviy axborot vositalarining rolini filmlarni tomosha qilish va muhokama qilish yoki audio kliplarni tinglash va ular haqida o'z fikrlarini yozish va muhokama qilish orqali ham til o'rganishda, ham tanqidiy muhokama orqali tarbiyaviy maqsadga erishish mumkin.

Pedagogik mahorat mezonlarini belgilashda haqiqiy o'qituvchi-pedagoglar o'z talabalari shaxsiga alohida yondashish bilan ajralib turadilar. O'qituvchi faoliyatining psixologik tomoniga uning ishining ajralmas, eng muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O'qituvchi psixologik metodining eng zaruriy ko'rsatkichlaridan biri faoliyati davomida talabalarga o'zaro kuchli ta'sir etuvchi qobiliyatga ega ekanligidir. O'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kamolotga erishishi, o'z kelajagi farovonligi uchun bilim olishlari ulkan ahamiyatga ega ekanligini singdira olish bevosita psixologik mahoratga tegishli hisoblanadi. Zero, talabalarining qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishga yordam berish o'qituvchining vazifalaridan biridir.

Ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, balki talabalarga bilim hosil qilishga yordam beradigan vositalardan foydalanishni o'rgatishdir. Ko'p jihatdan ta'lim jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchilarning kasbiy mahorati, shaxsiy sifatlari, qobiliyat va malakalariga bog'liq. Bu talablarni qondirish uchun o'qituvchi avvalo psixologik kompetentlikka ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, xorijiy tillarni mukammal egallash – bu, o'quvchilar uchun bir necha muvaffaqiyat eshiklarining ochilishi, dunyoqarashining kengayishi, tafakkur doirasining o'sishi ekanligini uqtira bilish kerak. Bularning barchasi shaxs kamolotining yuksalishida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Bakhronova Dilrabo & Qudratulla Omonov. *Digital and Innovative Education During the COVID-19 Pandemic: Uzbekistan 2022 ECS Trans.* 107 12977. DOI 10.1149/10701.12977ecst

[2]. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера //Хорижий филология. – 2019. – Т. 3. – С. 62-68.

[3]. Mishra, D., Bakhronova, D., Djalilova, U. (2023). *Activity-Based Learning: An Analysis to Teach Learners Using Online Methodologies*. In: Nguyen, T.D.L., Lu, J. (eds) *Machine Learning and Mechanics Based Soft Computing Applications. Studies in Computational Intelligence*, vol 1068. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-19-6450-3_17

- [4]. Турамуратова И. И., Гофурова В. В. Межкультурная коммуникация в современной культурно-образовательной парадигме // Молодой ученый. – 2024. – С. 4-451.
- [5]. History of the Callan Method. <https://www.abc.school.co.uk/about-us/history-of-the-callan-method>
- [6]. Blog Category: Foreign Languages vs English. <https://icaltefl.com/category/foreign-languages-vs-english/>